

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA SHAXLO OLIMOVNA**

**SANOAT KORXONALARI MAHSULOTLARINING QO‘SHILGAN**  
**QIYMATINI OSHIRISH ORQALI SAMARADORLIGINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 658:338.45(575.1)**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Raxmatova Shaxlo Olimovna**

Sanoat korxonalari mahsulotlarining qo'shilgan qiymatini oshirish orqali samaradorligini takomillashtirish .....3

**Рахматова Шахло Олимовна**

Совершенствование эффективности продукции промышленных предприятий путем увеличения добавленной стоимости .....23

**Raxmatova Shakhlo Olimovna**

Improving the efficiency of industrial products by increasing added value.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....49

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**RAXMATOVA SHAXLO OLIMOVNA**

**SANOAT KORXONALARI MAHSULOTLARINING QO‘SHILGAN  
QIYMATINI OSHIRISH ORQALI SAMARADORLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4332 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nazarova Fotima Xakimovna**  
iqtisodiyot a fanlari doktori, professor

**Rustamov Narzillo Istamovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 03 19 soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1603 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51, [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "03" 06 kuni tarqatildi.

(2025-yil "03" 06 dagi 16 raqamli reyestr jayonnomasi).



**Sh.E. Sindarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**T.S. Qo'chqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida chuqur qayta ishlashning iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlashi bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Dunyoda har yili 4 milliard tonnadan ortiq sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi<sup>1</sup> va bu borada ekologik va innovatsion talablarga mos soha samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada sohaning asosiy xomashyo bazasi bo'lgan qishloq xo'jaligini sanoat ishlab chiqarish bilan uyg'un holda rivojlantirish, mahsulot sifatini "ishlab chiqarish - xizmat ko'rsatish - jarayonga oid boshqa obyektlar" doirasida yaxlit jarayon sifatida amalga oshirish bugungi kunda qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishga keng e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida sanoat mahsulotlarining qo'shilgan qiymatini oshirish orqali samaradorligini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sanoat usulida qayta ishlash tizimida o'zaro aloqalarni optimallashtirish, klaster ishlab chiqarishida iqtisodiy aloqalarini ratsional tashkil qilish, tizim korxonalarining texnologik zanjirini yaratish, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish jarayonini iste'mol talablariga ko'ra optimal tashkil qilish, yakuniy natijadorlikni qo'shilgan qiymat zanjirining barcha ishtirokchilari o'rtasidagi ratsional taqsimotini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat zanjiri ishtirokchilarining iqtisodiy manfaatdorligini samarali ta'minlash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bilan bozorni to'ldirishda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatini zamonaviy usullar orqali rivojlantirish, qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni samarali tashkil etish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sanoatning "drayver" sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish maqsadi doirasida sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo'lga qo'ygan korxonalarni faol rag'batlantirish tizimini joriy qilish kabi vazifalar belgilandi<sup>2</sup>. Mazkur vazifalarni hal etishda qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligi va hududiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini baholash uslubiyotini takomillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra ishlab chiqarishni uzviy tashkil qilish, qo'shilgan qiymat zanjiri to'liq siklini o'zaro manfaatdorlik asosida optimal tashkil qilish, oziq-ovqat mahsulotlari hajmini prognozlashning aniqlik darajasini oshirish kabi yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

<sup>1</sup> BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti hisobotiga asosan. <https://www.fao.org/land-water/land/land-governance/land-resources-planning-toolbox/category/details/fr/c/1029516/>

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ««Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

to'g'risida", 2024 yil 16 fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 iyuldagi PF-4406-son "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 9 sentabrdagi PQ-4821-son "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 11 dekabrda PQ-4549-son "Meva-sabzavot va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Sanoat korxonalarining qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish, uning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik asoslari xorijlik iqtisodchi olimlardan M.Porter, P.Doyl, R.B.Xandfild, J.K.Shank, M.V.Meyer, G.Gereffi va boshqalarning ishlarida atroflicha o'rganilgan<sup>3</sup>.

Mazkur masalalar MDH olimlaridan S.B.Avdasheva, N.K.Vodomerov, A.P.Tyapuxin, S.I.Ojegov, S.D.Ilenkova, S.Glazev, A.G.Granberg, V.V.Ivanter, N.Ya.Petrakov va boshqalarning tadqiqotlarida keng yoritib berilgan<sup>4</sup>.

O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish masalalari N.I.Saidaxmedova, R.H.Hakimov, M.A.Rahmatov, M.A.Karimov, B.T.Salimov, T.T.Jo'raev, A.S.Yusupov, R.Xalikova, B.F.Tolipova, M.Murodova va boshqalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan<sup>5</sup>.

---

<sup>3</sup> M. Porter, The competitive advantage of nations. New York: The Free Press, 1990., Дойль, П. Менеджмент: стратегия и тактика. - Пер. с англ, под ред. Ю.Н. Каптуревского. - СПб: Издательство «Питер». - 1999. - 560 с, Хэндфилд, Р.Б. Реорганизация цепей поставок. Создание интегрированных систем формирования ценности / Р.Б. Хэндфилд, Л. Эрнест. - пер. с англ. - М.: Издательский дом «Вильямс». - 2003. - 416 с., Шанк, Дж.К. Стратегическое управление затратами / Дж.К. Шанк, Виджей Говиндараджан. - Пер. с англ. - СПб.: ЗАО «Бизнес Микро». - 1999. - 288 с., Мейер, Маршал В. Оценка эффективности бизнеса / Маршал В. Мейер. - Пер. с англ. А.О. Корсунский. - М.: ООО «Вершина». - 2004. - 272с., Gary Gereffi. The organization of buyer-driven global commodity chains: How US retailers shape overseas production networks. Commodity chains and global capitalism. 1994. p-95-122.

<sup>4</sup> Авдашева С.Б. Модернизация российских предприятий в цепочках создания стоимости (на примере трубной и мебельной промышленности России) / С.Б. Авдашева, И.А. Буданов, В.В. Голикова, А.А. Яковлев // Экономический журнал ВШЭ. - 2005. - № 3. - С. 361-377., Водомеров, Н.К. Использование трудовой теории стоимости в анализе современной рыночной экономики: дисс... д-ра экон, наук: 08.00.12 / Н.К. Водомеров. - М.: МГУ им. М.В. Ломоносова. - 2003. - 292 с., Тяпухин, А.П. Логистика: учебник для бакалавров /А.П. Тяпухин. - М.: Издательство Юрайт. - 2011.- 568 с., Построение цепочки создания стоимости / Серия «Классика Наугаб Визшезз Кеутеду». М.: Альпина Бизнес Букс. - 2007. - 261 с., Ильенкова, С.Д. Инновационный менеджмент: учебник / С.Д. Ильенкова, Л.М. Гохберг, С.Ю. Ягудин. - М.: Банки и биржи, ЮНИТИ. -1997. - 327 с., Глазьев, С.Ю. Перспективы российской экономики в условиях глобальной конкуренции / С.Ю. Глазьев // Экономист. - 2007. - № 5. - С. 4-16., Гранберг, А.Г. Стратегия и проблемы устойчивого развития России в XXI веке / А.Г. Гранберг. - М.: Экономика. - 2002. - 414 с., Ивантер, В.В. Будущее России: инерционное развитие или инновационный прорыв (долгосрочный сценарный прогноз) /В.В. Ивантер, М.Н. Узяков // Проблемы прогнозирования. - 2005. - № 5. - С. 17-63., Петраков, Н.Я. Развитие процессов модернизации в России: предварительные итоги / Глава коллективной монографии «Проблемы развития рыночной экономики» / Н.Я. Петраков. - М.: ЦЭМИ РАН. -2011.280 с.

<sup>5</sup> Н.И.Саидхмедова. Ўзбекистонда озиқ-овқат саноати маҳсулотларини ишлаб чиқариш тенденциялари ва муаммолари//“Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 2, апрель, 2019; Р.Хақимов. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти. Дарслик. –Т.: ТДИУ, 2009. – 292 б.; М.А.Раҳматов, Б.З. Зарипов. Кластер – интеграция,

**Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №OT-F1-154 "Milliy iqtisodiyot tarkibiy o'zgarishining yalpi ichki mahsulot o'sishiga ta'sirini baholash metodologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sanoat korxonalarini mahsulotlarining qo'shilgan qiymatini oshirish orqali samaradorligini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

qo'shilgan qiymat zanjiri va uning samaradorligini baholashga doir nazariy yondashuvlarni ilmiy -uslubiy jihatlarini tadqiq etish;

Buxoro viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari va ularning ustuvor yo'nalishlarini baholash;

"Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratilishi bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish;

don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun qiymat zanjiri menejmenti tizimini taklif etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

"Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish;

hududdagi don mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida klasterlarni joriy etish bilan bog'liq jarayonlarni ilmiy tadqiq qilish;

Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash;

innovatsion yondashuvlar asosida hududdagi don mahsulotlari korxonalarining texnologik zanjirini yaratish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Buxoro viloyatidagi sanoat korxonalarini, jumladan "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** sanoat korxonalarini mahsulotlarining qo'shilgan qiymatini oshirish orqali samaradorligini takomillashtirish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda abstrakt-mantiqiy mushohada, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, normativ va pozitiv tahlil, ko'p omilli korellyatsion ekonometrik tahlil, qiyosiy va tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda yangi mahsulotni yaratish va amalda qo'llash yoki mavjud mahsulotni yangilash uchun zarur bo'lgan jarayonlar

---

инновация ва иқтисодий ўсиш. Рисола. Т.: "Zamin Nashr" нашриёти, 2018. 164 б.; М.А.Каримов. Озиқ-овқат саноати корхоналарида бошқариш механизмига таъсир этувчи омиллар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020; Б.Т.Салимов, М.С.Юсупов, А.С.Юсупов. Жаҳон аграр ва озиқ-овқат бозорларига интеграциялашув шароитида мева-сабзавот маҳсулотларининг рақобатбардошлигини ошириш. Монография. -Т.: Иқтисодиёт, 2014. – 165 б.; Б.Ф.Толипова. Озиқ-овқат саноатининг инвестициявий самарадорлигини оширишда рақамли технологияларни жорий этиш ва автоматлаштириш истикболлари. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020.

kombinatsiyasi (NPD)ni joriy etishda muntazam ravishda texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlar yuzasidan "teskari aloqalar"ni ta'minlovchi yondashuvni qo'llash orqali qo'shilgan qiymatini yanada oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari korxonalarining hududiy klasterini yaratish hamda xomashyolarni sanoat usulida qayta ishlashga ixtisoslashgan tashkiliy-funksional modelni tatbiq etish orqali 4 bosqichli qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligini "past" ( $0 < K_{quyi} \leq 0,33$ ), "o'rta" ( $0,34 < K_{o'rta} \leq 0,67$ ) va "yuqori" ( $0,67 < K_{yuqori} \leq 1$ ) darajalar bo'yicha baholash taklifi asoslangan;

Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari korxonalarida korporativ samaradorlik koeffitsiyenti eng past bo'lgan texnologik zanjir ishtirokchisini zanjirdagi "tor joy" sifatida belgilash hamda uning samaradorligini oshirish va kelajakda butun texnologik zanjirning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash taklifi asoslangan;

qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar asosida "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari dinamikasining 2030-yilga qadar prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun qiymat zanjiri menejmenti tizimini joriy etish asosida korxonada ishlab chiqarishning bir nechta vazifalarni birgalikda amalga oshiradigan yaxlit tizim yaratilgan;

Buxoro viloyati sanoat korxonalari, xususan "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatining faoliyati chuqur iqtisodiy tahlil qilingan va ularning natijalari asosida tarmoqni rivojlantirishga oid takliflar berilgan;

don mahsulotlarini qayta ishlash zanjirida klasterlarni yaratish jarayonlarining maqsadi, vazifalari, tamoyillari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning asosiy usullari, turlari, shakllari, darajasi, mexanizmlari va samaradorligini o'z ichiga olgan tizimli tarkibi ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida chuqur qayta ishlash tizimida qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish va rivojlantirishning metodologik jihatdan mantiqiy ketma-ketligi mexanizmi, shuningdek uni yaratishning maqsadga muvofiqligi, ahamiyati, afzallik va zaif tomonlari hamda mavjud imkoniyatlari va xatarlarini asoslash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarning ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining statistik ma'lumotlaridan olingani, taklif va tavsiyalarni amalda sinovdan o'tgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy va ilmiy tavsiyalardan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash orqali qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan oziq-ovqat sanoatini tartibga soluvchi davlat organlari tomonidan tarmoqni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbir va maqsadli davlat dasturlari ishlab chiqishda hamda don mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarini klaster tizimi asosida rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda, donni qayta ishlash sanoatini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar va maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini qo'shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda yangi mahsulotni yaratish va amalda qo'llash yoki mavjud mahsulotni yangilash uchun zarur bo'lgan jarayonlar kombinatsiyasi (NPD)ni joriy etishda muntazam ravishda texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlar yuzasidan "teskari aloqalar"ni ta'minlovchi yondashuvni qo'llash orqali qo'shilgan qiymatini yanada oshirish taklifi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 15-oktabrdagi №15-98/10-24-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tizimdagi barcha korxonalarda yangi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari takomillashtirilgan;

Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari korxonalarining hududiy klasterini yaratish hamda xomashyolarni sanoat usulida qayta ishlashga ixtisoslashgan tashkiliy-funksional modelni tatbiq etish orqali 4 bosqichli qo'shilgan qiymat zanjiri samaradorligini "past" ( $0 < K_{quyi} \leq 0,33$ ), "o'rta" ( $0,34 < K_{o'rta} \leq 0,67$ ) va "yuqori" ( $0,67 < K_{yuqori} \leq 1$ ) darajalar bo'yicha baholash taklifi Buxoro viloyatidagi don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari, xususan, O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi tarkibidan korxonalar faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 15-oktabrdagi №15-98/10-24-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida viloyatda don mahsulotlari korxonalarining klasteri tashkil etilib, uning samaradorligini oshirish imkoni ta'minlangan;

Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari korxonalarida korporativ samaradorlik koeffitsiyenti eng past bo'lgan texnologik zanjir ishtirokchisini zanjirdagi "tor joy" sifatida belgilash hamda uning samaradorligini oshirish va kelajakda butun texnologik zanjirning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash taklifi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024 yil 15 oktabrdagi №15-98/10-24-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida zanjirdagi samaradorligi eng past bo'lgan ishtirokchining samaradorligini oshirish, texnologik zanjirning kelajakda samarali faoliyat yuritishi hamda uning samaradorligi oshirish imkoni ta'minlangan;

qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar asosida "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari dinamikasining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz qiymatlari O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2024-yil 15 oktabrdagi №15-98/10-24-son dalolatnomasi). Prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha

berilgan takliflar viloyatdagi don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarida qo‘shilgan qiymat yaratilishi jarayonlarini tizimli ravishda rivojlanishini samarali nazorat qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 9 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, shundan nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo‘shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish asosida sanoat korxonalarida samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qo‘shilgan qiymat zanjirining iqtisodiy ahamiyati hamda unga doir nazariy yondashuvlar, qo‘shilgan qiymat - mahsulot ishlab chiqarish zanjirining samaradorligini baholashning asosi sifatida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar ilmiy-nazariy va uslubiy jihatdan tadqiq qilingan.


O‘zbekistonda aholi uchun iste‘mol mahsulotlarini yetishtirishda qo‘shilgan qiymat zanjiri rivojlanishi raqobatdosh, bozorbob mahsulotlar yetishtirish garovi hisoblanadi. Mahsulotlarni iste‘molchi talabi bo‘yicha yetkazib berishda mahsulotlarni yig‘ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash xarajatlarining va mahsulotni yetishtirishda qatnashadigan moddiy-texnika resurlari va xizmatlar birgalikda qo‘shilgan qiymat zanjirini tashkil etmoqda.

“Qiymat” atamasi doim iqtisodiy munosabatlarni, qiymat miqdorini ko‘rsatadi, shuning uchun u mahsulot uchun to‘lanishi kerak bo‘lgan yoki uni sotish mumkin bo‘lgan narxni nazarda tutadi, ya‘ni bu tovar munosabatlari toifasidir. Qiymat zanjiri mahsulot bo‘lgan moddiy oqimni o‘zgartirish jarayoni sifatida ifodalanishi mumkin. Materiallar oqimi ostida (xom ashyo - mahsulot) obyektlari moddiy resurslar (xom ashyo, materiallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va boshqalar), tugallanmagan ishlab chiqarish obyektlari, shuningdek tayyor mahsulotlar bo‘lgan harakatlantiruvchi massaga tegishli bo‘ladi. Turli mualliflarning qiymat zanjiri ta‘rifiga yondashuvlari 1-jadvalda keltirilgan.

Mualliflarning qiymat zanjiri ta'rifiga yondashuvlari<sup>6</sup>

Mualliflar	Berilgan ta'riflar
<b>Porter M.</b>	Qiymat zanjiri-bu qiymat yaratadigan o'zaro bog'liq faoliyat to'plami xom ashyoning dastlabki manbalaridan boshlab iste'molchi va yetkazib beruvchilar uchun materiallar va oxirgi iste'molchiga yetkazib beriladigan tayyor mahsulotlar bilan yakunlanadi yoki oxirgi mijozga taqdim etilgan xizmat.
<b>Kaplinski R., Morris M.</b>	Qiymat zanjiri mahsulot yoki xizmatning paydo bo'lishidan boshlab, ishlab chiqarishning oraliq bosqichlari (jumladan, jismoniy o'zgarishlarning kombinatsiyasi), yakuniy iste'molchiga yetkazib berish va foydalanishdan keyin utilizatsiya qilishgacha bo'lgan to'liq sikldan o'tishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan barcha tadbirlarni o'z ichiga oladi.
<b>Tompson A.A., Striklend A.Dj.</b>	Faoliyat qiymatini yaratadigan zanjir xom ashyo bilan ta'minlashdan boshlanadi va ehtiyot qismlar va butlovchi qismlarni ishlab chiqarish, mahsulotlarni yig'ish va chiqarish, mahsulot yoki xizmatni oxirgi iste'molchilarga ulgurji va chakana sotish jarayonida davom etadi.
<b>Repin V.V.</b>	Qiymat zanjiri-bu mijozlar uchun qiymat yaratadigan uyushgan va o'zaro bog'liq biznes-jarayonlar to'plami. Qiymat zanjiri o'zaro ta'sir qiluvchi jarayonlar to'plamidan iborat bo'lib, ularning umumiy natijasi mahsulot (xizmat) uning oxirgi mijozlari uchun.

Qiymat zanjiri o'zaro bog'liq faoliyat tizimini ifodalaydi. Faoliyat turlari o'rtasidagi aloqalar raqobatdosh ustunliklarni berishi mumkin bo'lgan korxonalar faoliyatining ayrim turlariga alternatalarni amalga oshirishga imkon beradi. Qiymat yaratish tizimi kengroq faoliyatdir, muayyan sohadagi korxonaning qiymat zanjiri majmuasida ishtirok etadi (1-rasm).

1-rasm. Qiymat yaratish tizimi<sup>7</sup>.

Oziq-ovqat sanoatida qiymat zanjiri xom-ashyo tayyorlash uchun ekin ekishdan boshlanadi va tayyor mahsulotni chakana savdosi bilan tugaydi. Ushbu jarayonga xom-ashyo tayyorlashgacha bo'lgan bosqich, ya'ni qishloq xo'jalik ekinini yetishtirish jarayonini qo'shilishi jiddiy ahamiyatga ega. Chunki, yo'qotishlarning katta qismi ushbu bosqichda yuz beradi, xomashyo sifati mahsuloti sifatiga to'g'ridan-to'g'ri

<sup>6</sup> Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>7</sup> Портер, М.Э. Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость / М.Э. Портер. - Пер. с англ. - 2 изд. -М.: Альпина Бизнес Букс. - 2006.-715 с.

kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qayta ishlash sanoatining muvaffaqiyati ta'minotchilarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Iste'molchilarning yakuniy mahsulotdan oladigan nafi yoki yo'qotishlari esa tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy samardorlik darajasidan kelib chiqib, shakllanadi. Yakuniy mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalar vositachilik bilan hamkorlikni to'g'ri yo'lga qo'ya olishi ko'p jihatdan bozordagi muvaffaqiyatga ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiyada don mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda yangi qo'shilgan qiymat yaratishda NPD (New Product Development) jarayonlarini joriy etish taklif qilingan. Korxonalarda NPD jarayonlari 7 bosqichli tizimini joriy qilish orqali uning samaradorligini oshirish asoslab berilgan. "Agile" yondashuvi orqali yangi yaratilgan mahsulotning qo'shilgan qiymatini yanada takomillashtirish takliflari ishlab chiqilgan. NPD yoki New Product Development - bu yangi mahsulotni yaratish va amalda qo'llash yoki mavjud mahsulotni yangilash uchun zarur bo'lgan jarayonlar kombinatsiyasidir. NPD ni yangi mahsulot yaratish va amalda qo'llash bo'yicha ishlarni tashkil etishga yordam beradigan "freymvork" ya'ni namuna sifatida ham qarash mumkin. NPD yoki New Product Development jarayoni 7 bosqichdan iborat bo'ladi:

1. Yangi mahsulot g'oyalari va gipotezalarning yaratilishi;
2. Yangi mahsulot g'oyalarining tahlili;
3. Yangi mahsulot yaratish konsepsiyani ishlab chiqish va uni tekshirish;
4. Konsepsiyaning biznes modellari tahlili;
5. Yangi mahsulotni loyihalashtirish va ishlab chiqish;
6. Marketing tekshiruvlari;
7. Yangi mahsulotni yaratish.

Dissertatsiyada yangi mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish uchun "Agile" yondashuvi qo'llash taklif etildi. Agile yondashuvi - bu yangi mahsulotni tezroq yaratish jarayonini to'g'ri tashkil etishga yordam beradigan tartiblarni ishlab chiqishdir. Yangi yaratilgan mahsulotning qo'shilgan qiymatini takomillashtirish maqsadida mazkur jarayonni kichik bo'laklarga bo'lib tahlil qilish taklif etildi. Buni bir nechta qismlarga: rejalashtirish, loyihalash, ishlab chiqish, sinov, namoyish qilish, tekshirish va ishga tushirish kabilarga bo'lish orqali uning samaradorligi oshishi ta'minlandi.

Dissertatsiyaning **"Buxoro viloyatida sanoat tarmoqlarining qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish holatini baholash"** deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyatida sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendensiyalari va ustuvor yo'nalishlari, "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida iqtisodiy samardorlik ko'rsatkichlari tahlili, "Buxoro don mahsulotlari" aksiyadorlik jamiyatida qo'shilgan qiymat zanjiri bilan bog'liq ko'rsatkichlarni baholash masalalari yoritilgan.

Bugungi kunda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bevosita mamlakatda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashi sababli viloyat, tuman va shaharlarning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish asosida ularni barqaror rivojlantirish, aholining bandlik darajasi va daromadlarini oshirish, kambag'allikni hamda hududlar rivojlanishidagi keskin farqlarni kamaytirish, ularning raqobatbardoshligini ta'minlash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarini qo'shilgan qiymat yaratilishini o'rganish maqsadida viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. (2-jadval).

**2-jadval**

**Buxoro viloyatida sanoat rivojlanishining umumiy ko'rsatkichlari tahlili<sup>8</sup>**

№	Ko'rsatkichlar va o'lchov birligi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y. 2019 y.ga nisb-n (+,-)
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so'm	28143,3	31593,4	38350,1	45 797,3	60028,8	31885,5
2.	Yalpi hududiy mahsulotni o'sish sur'ati, %	106,3	102,8	106,5	104,4	105,2	-1,1 p
3.	Sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'm	14798,2	17574,4	20772,1	27 245,2	31860,4	17062,2
4.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, %	110,5	100,6	100,1	106,2	106,3	-4,2 p
5.	Yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoatning ulushi, %	26,4	24,8	25,0	26,2	27,5	+1,1 p
6.	Sanoatning respublika sanoatidagi ulushi, %	4,7	5,3	5,0	5,4	5,5	+0,8 p

2- jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'rganilgan yillarda viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sishi bilan bir qatorda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishi ro'y bergan. Viloyat sanoatining respublika sanoatidagi ulushi ham oxirgi yilda o'sgan. Bu viloyatda keyingi yillarda sanoat tarmog'i samarali ishlayotganini bildiradi.

“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy holatini baholash uchun uning ishlab chiqarishi faoliyatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Bunda mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi, mahsulotning narx indeksi, korxonadagi ishlovchilar soni, asosiy ishlab chiqarish fondlarining qiymati kabi ko'rsatkichlar o'rganildi (3-jadval).

**3-jadval**

**“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida sanoat ishlab chiqarishining umumiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tahlili<sup>9</sup>**

№	Ko'rsatkichlar va o'lchov birligi	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y. 2019 y.ga nisb-n (+,-)
1.	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm	108050	133954,9	161279,1	155788,3	1 05068,6	-2 981,6
2.	Mahsulot ishlab chiqarish o'sishi, %	95,6	123,9	120,4	96,6	67,4	-28,2 p
3.	Mahsulotlarning narx indeksi, %	112,7	114,8	113,8	113,1	113,9	+1,2 p
4.	Ishlovchilar soni (kishi)	364	263	246	237	219	-145
5.	Asosiy fondlarni qiymati mln. so'm	10457,1	15912,4	26356,2	22847,7	20009,9	+ 9552,8

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Buxoro viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

<sup>9</sup>“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 3,8 % ga kamaygan, mahsulot ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati -28,2 punktga kamaygan, mahsulotlarning narx indeksi 1,2 punktga oshgan va ishlovchilar soni kamaygani holda, korxonaning asosiy fondlarining qiymati oshgan. Bu korxonada iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim ekanligini bildiradi. Korxonada moddiy resurslardan samarali foydalanishni o‘rganishda shunga e‘tibor qaratish lozim, moddiy xom ashyo resurslarini reja asosida tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun imkon yaratadi.

Moddiy xomashyo resurslardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajat bo‘lgan bo‘lsa, mahsulot ishlab chiqariladi yoki moddiy xomashyolarni tejash natijasida qo‘shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ladi. “Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida moddiy resurslardan samarali foydalanishga xom ashyo sarfi bilan bir qatorda xom ashyolar bahosining o‘zgarishi ham ta’sir qiladi, ushbu holat 4-jadvalda keltirilgan.

#### 4-jadval

#### “Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida moddiy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish tahlili<sup>10</sup>

№	Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y. 2019 ga nisbatan farqi (+,-)
1.	1 tonna tayyor mahsulotga sarflanadigan xomashyo, kg.	1250	1244	1240	1238	1234	-16
2.	1 tonna xomashyoning bahosi, ming so‘m.	2818,7	3100,9	3415,1	3757,0	4207,8	+1389,1
3.	1 tonna tayyor mahsulotga sarflanadigan xomashyo xarajatlari, mln. so‘m.	3523,3	3857,5	4234,7	4651,1	5192,4	+1669,1

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, korxonada moddiy xomashyo resurslaridan foydalanish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishilgan. Korxonada moddiy xomashyo resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilsak, 2023 - yilda 1 tonna tayyor mahsulotga sarflanadigan xomashyo 2019 - yilga nisbatan -16 kg.ga kamaygan. Xomashyoning bahosi 2019 - yilga nisbatan +1669,1 ming so‘mga oshgan. Xomashyo xarajatlariga ikki omilning ta’siri aniqlandi:

1. Xomashyo xarajatlariga xomashyo sarfi o‘zgarishining ta’siri;

$$-0.016 * 2818.7 = -45.1 \text{ mln. so'm}$$

Demak, xomashyo sarfi kamayishi hisobiga 1 tonna tayyor mahsulot moddiy xarajatlari -45,1 mln. so‘mga kamaygan.

2. 1 tonna tayyor mahsulot moddiy xarajatlariga xomashyo bahosining o‘zgarishi ta’siri;

$$1234 * 1389.1 = +1714.2 \text{ mln. so'm}$$

Demak, xomashyo bahosining o‘zgarishi bir tonna tayyor mahsulot xarajatlarini 1714,2 mln. so‘mga ko‘paytirdi.

<sup>10</sup>“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Shunday qilib, umumiy ta'sir baholandi:

$$-45.1 + 1714.2 = 1669,1 \text{ mln.so'm}$$

“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi umumiy xarajatlar tahlili 5-jadvalda berilgan.

### 5-jadval

#### “Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatidagi un ishlab chiqarish liniyasida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari tarkibining tahlili<sup>11</sup> (foizda)

Ko'rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2023 y.2019 y.ga nisb-n farqi (punkt)
Jami xarajatlar	100	100	100	100	100	-
shu jumladan:						
Xomashyo xarajatlari	89,6	90,3	90,5	90,8	90,7	+1,1 p
Yordamchi materiallarga xarajatlar	6,3	6,0	5,9	5,8	6,0	- 0,3 p
Mehnat va ish haqi xarajatlari	0,9	0,8	0,8	0,7	0,7	-0,2 p
Energiya va asosiy fondlar amortizatsiyasi	2,3	2,1	2,0	1,9	1,8	-0,5 p
Boshqa xarajatlar	0,9	0,8	0,8	0,8	0,8	- 0,1 p

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, korxonada mahsulot ishlab chiqarish tannarxining tarkibida xom ashyo xarajatlarning ulushi oshgani holda tannarx elementlarining boshqa xarajatlarda kamayish ro'y bergan. Bu korxonada moddiy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining “**Buxoro viloyatida sanoatning qo'shilgan qiymat zanjirini takomillashtirish yo'llari**” deb nomlangan uchinchi bobida hududda don mahsulotlarining qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishda klasterlardan foydalanishning ustuvor yo'nalishlari, “Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining ekonometrik tahlili va prognozlari, innovatsion yondashuvlar orqali hududiy don mahsulotlari korxonalarining texnologik zanjirini yaratish va uning samaradorligini oshirish kabi ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Hozirgi rivojlanish sharoitida viloyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda klasterlar muhim ahamiyatga ega. Klasterlarning tashkil etilishi va rivojlanishi yuqori darajadagi samaradorlik va investitsion jozibadorlikni tavsiflovchi iqtisodiyotni shakllantiradi.

Buxoro viloyatida don mahsulotlari hududiy klasterini rivojlantirish borasida quyidagi xususiyatlar kuzatilmoqda:

bozor iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida joylardagi yirik ishlab chiqarish barham topib bormoqda;

asta-sekinlik bilan sanoat tarmog'ining aksariyat sohalarida, xususan donni qayta ishlash sanoatida kichik biznes sub'ektlari ko'payib bormoqda;

<sup>11</sup>“Buxoro don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

donni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarishning eski texnologiyalardan foydalanish holatlari tugatilmoqda;

yirik sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmi qisqargan bo'lsa-da, mahsulot assortimentlari kengaymoqda;

mahalliy xomashyo bilan bog'liq bo'lmagan yangi ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo'lmoqda.

Oziq-ovqat sanoatining don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonalarini yuqori darajadagi hududiy mujassamlashuvi iqtisodiy joylashtirish omillari nuqtai-nazaridan qonuniy holdir. Ayni vaqtda, donni qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ichki iste'mol nuqtai-nazaridan yondashish lozim. Hududning klaster bilan qamrab olish darajasi, klasterning ishlab chiqarish va resurs salohiyati, iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligini baholash bo'yicha tavsiya etilayotgan ko'rsatkichlar klasterlar faoliyatini tahlil etish va rejalashtirishga imkon beradi, ularning har biri bir qancha ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi, birinchi va ikkinchi guruhlar 6 tadan, uchinchi guruh 11 ta, to'rtinchi guruh 8 ta, beshinchi guruh esa 11 ta jami 42 ta ko'rsatkichlar tashkil etadi:

hududni klaster bilan qamrab olinish darajasi ( $X_1$ )- ekin maydoni hajmiga ko'ra; qayta ishlash korxonalarini soniga ko'ra; birlashtirilgan fermer xo'jaliklari soniga ko'ra; bandlar soniga ko'ra; xomashyo yetishtirish hajmiga ko'ra hamda qayta ishlash hajmi bo'yicha;

klasterning ishlab chiqarish va resurs salohiyati ( $X_2$ )- ishlab chiqarish quvvatlari bo'yicha; ishlab chiqarish hajmi bo'yicha; birlashtirilgan yer maydoni hajmi bo'yicha; asosiy fondlar qiymati bo'yicha; bandlik bo'yicha hamda investitsiya hajmi bo'yicha;

klaster faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar ( $X_3$ )- sotishdan sof tushum prognoz ko'rsatkichi bajarilishi %; sof foyda prognozi bajarilishi %; ishlab chiqarish xarajatlari tejallishi; ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi; mahsulot tannarxi; mehnat unumdorligi; mehnat sig'imi; mahsulot sotish rentabelligi; ishlab chiqarish xarajati rentabelligi; aktivlar rentabelligi hamda xususiy kapital rentabelligi;

asosiy fondlardan (asosiy kapitaldan) foydalanish darajasi va samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar ( $X_4$ )- fond bilan qurollanish darajasi; asosiy fondlarni eskirish darajasi; asosiy fondlarni yangilanish darajasi; asosiy fondlarni chiqib ketish darajasi; fond qaytimi; fond sig'imi; kapital qaytimi hamda kapital sig'imi;

klaster to'lovga qobilligi va moliyaviy barqarorligini baholovchi ko'rsatkichlar ( $X_5$ )- moliyaviy mustaqillik koeffitsienti; moliyaviy qaramlik koeffitsienti; qarzdorlik koeffitsienti; joriy likvidlik koeffitsienti; tezkor likvidlik koeffitsienti; absolyut likvidlik koeffitsienti; aktivlarning aylanishi tezligi; debitor qarzlarni aylanish tezligi; debitorlik qarzlarning o'rtacha undirilishi muddati; kreditor qarzlarni aylanish tezligi hamda kreditorlik qarzlarni o'rtacha to'lash muddati.

$$K_s = X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5 \quad (1)$$

Don mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududiy klasterlar faoliyati samaradorligi mezon va ko'rsatkichlarning barchasiga javob berganda bu koeffitsientlar yig'indisi 1 ga teng bo'ladi. Ularning har biri klaster faoliyati samaradorligida ma'lum salmoqli koeffitsientga ega. Shundan kelib chiqib tadqiqotimizda klasterlarning ko'rsatkichlarga javob bera olganda vujudga keladigan

salmoq koeffitsientlari aniqlab olindi. Hisob-kitob natijalariga ko‘ra, donni qayta ishlashga ixtisoslashgan klaster faoliyatini 3 xil darajada samaradorlik koeffitsientlariga bo‘lindi. Ya’ni rang koeffitsientlari (0-0,33) oralig‘ida bo‘lsa samaradorlik past, (0,34-0,66) oralig‘ida bo‘lsa samaradorlik o‘rta, (0,67-1) oralig‘ida bo‘lsa samaradorlik yuqori deb baholandi.

Dissertatsiyada Buxoro viloyatidagi don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish, korxonalarni har tomonlama mutanosib rivojlantirishni ta’minlash, ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida uyushma tarkibiga kiruvchi Buxoro viloyatidagi korxonalarining texnologik zanjirini tashkil etish taklif etildi. Texnologik zanjirni tuzish bo‘yicha asosli qaror qabul qilinib, uning tarkibiga kiruvchi ishtirokchilar tanlab olindi. Texnologik zanjir tarkibidagi korxonalarining korporativ samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida aniqlandi:

1. Har bir korxonaning texnologik zanjir xarajatlaridagi ulushini ( $DX_{ki}$ ) aniqlash:

$$DX_{ki} = \frac{X_{ki}}{X_{tz}} \quad (2)$$

Bunda:

$X_{ki} - i$  – korxonaning xarajatlari;

$X_{tz}$  – texnologik zanjir xarajatlari.

2. Har bir korxonaning texnologik zanjir foydasidagi ulushini ( $DF_{ki}$ ) aniqlash:

$$DF_{ki} = \frac{F_{ki}}{F_{tz}} \quad (3)$$

Bunda:

$F_{ki} - i$  – korxonaning sof foydasi;

$F_{tz}$  – texnologik zanjir sof foydasi.

3. Har bir korxonaning korporativ samaradorlik koeffitsientini ( $K_{ki}$ ) aniqlash:

$$K_{ki} = \frac{DF_{ki}}{DX_{ki}} \quad (4)$$

Korporativ samaradorlik koeffitsientining natijalaridan kelib chiqib, korxonalarining hisob-kitob natijalari 6-jadvalda keltirildi. Texnologik zanjir korxonalarining o‘zaro hamkorligi asosida eng kichik miqdori aniqlandi. O‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichi eng kichik miqdorga ega bo‘lgan korxonaning texnologik zanjirdagi “tor joy” hisoblanadi. Texnologik zanjirdagi “tor joy”lar (“zanjirli bog‘liqliklarni uzadigan korxonalar”) texnologik zanjir samaradorligini pasaytiruvchi korxonalar hisoblanadi. Texnologik zanjirdagi “tor joy”larni aniqlash maqsadida korxonalarining o‘zaro hamkorlik ko‘rsatkichi quyidagi formula asosida aniqlandi:

$$O'H_i = \frac{E_i}{E_{o'rt}} \quad (5)$$

Bunda;

$E_i - i$  – korxonaning samaradorligi;

$E_{o'rt}$  – texnologik zanjirning o‘rtacha samaradorligi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2023 yilda har bir korxonaning ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy ulushi, foydadan o‘ziga tegishli qismini olish darajasi va o‘zaro hamkorlik samaradorligi bo‘yicha sezilarli farqlar mavjud. “Akbarjon Baraka” MChJ

